

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

“TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARIDA TARIXIY VA BADIY VOQELIK TASVIRI

Sayidolimov Javoxirbek Baxtiyorjon o‘g‘li,
FarDU adabiyotshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

sayidolimovjavoxir@gmail.com

ORCID: 0009-0006-3962-3792

Tel: +99899-609-16-42

Annotatsiya: mazkur maqolada Alisher Navoiy qalamiga mansub “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining agiografik asarlar qatorida turishi hamda asarning agiografik xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. Alisher Navoiyning “Zubdat ut-tavori” turkumidagi asarlarining debochasi hisoblangan mazkur manbada tarixiy voqealarning badiiylik asosida yoritilishi, nasriy va nazmiy parchalarning ta’sirchan ammo tarixiylikdan yiroqlashmagan holda usulda berilishi natijada “Tarixi anbiyo va hukamo” tarixiy manbadan ko‘ra badiiy asar sifatida e’tirof etilishiga sabab bo‘lgan. “Tarixi anbiyo va hukamo” asari ikki qisimdan iborat bo‘lib, birinchi qisimda anbiyolar haqida so‘z yuritilgan bo‘lsa, ikkinchi qisim hukamolar zikriga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: agiografik adabiyot, anbiyo, hukamo, e’tiqod, badiiylik, badiiy vositalar, silsila, an’ana, musulmon agiografiyasi, qissa,

Kirish. O‘zining benazir asarlari orqali turkiy adabiyotning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari Sharq agiografiyasining rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. “U davr tarixshunosligida o‘rnashgan tartibga ko‘ra, har bir tarixnoma yozuvchi umumtarix voqealaridan ish boshlar edi. Avvalo, Odam alayhissalom tarixi, ya’ni insoniyatning paydo bo‘lishidan boshlab to payg‘ambargacha yozib chiqar, so‘ng to‘rt avlod Ajam sulolalari to‘g‘risida, so‘ng Islom davri tarixini yozar edi. Shu yo‘sinda asta-sekin o‘z zamonasi tarixiga o‘tar edi” [1.234]. Gap shundaki, Alisher Navoiy voqealarga tarixchi yoki diniy ulamo sifatida emas, badiiy so‘z san’atkori sifatida yondashgan holda o‘z asarini yaratgan. Qur’oniylar mavzular va qissalarning badiiy jihatdan muallif qarashlari asosida yoritib berilganligining o‘zi asarni tarixiy manba emas, adabiyot namunasi sifatida o‘rganishni taqozo etadi. “Hazrat Alisher Navoiy o‘zining buyuk epik asari “Xamsa”dagi dostonlarda, shuningdek, bir qator nasriy asarlari: “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki ajam”, “Munshaot”, “Majolis un-nafois”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Mahbub ul-qulub”da payg‘ambarlar, shohlar, hukmdorlar tavsifiga alohida to‘xtaladi, ular haqida o‘z munosabatini

bildirib, hokimiyat, davlat, xalq, jamiyat, boshqaruv usullari to‘g‘risida muayyan fikr-mulohazalarini bayon etib boradi”[2.27]. Umuman olganda, ijodkorning barcha asarlarida diniy-e‘tiqodiy qarashlarning ramziy yo‘sinda tasvirlanishi va bu orqali jamiyatni ma‘naviy jihatdan isloh qilishga bo‘lgan harakatni ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili: Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” va turkiy adabiyotdagi dastlabki agiografik asarlardan biri sifatida e‘tirof etilgan Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarlari shakl va mazmun jihatidan o‘xshash bo‘lsa ham, kompozitsion, g‘oyaviy, badiiy jihatdan farqlanadi. Shu bilan bir qatorda, Nosiruddin To‘qbug‘a iltimosiga ko‘ra yaratilgan mazkur asarda muallif ko‘pincha voqea-hodisalarga sharh va izoh berib o‘tadi. Alisher Navoiy esa so‘z san‘atkori sifatida voqealarni bayon etadi. Ijodkor hikoyalarning mustaqil syujetga ega ekanligini ta‘minlagan, obrazlarga alohida sayqal bergan holda hayotiylikni yetakchi o‘ringa qo‘yadi. “...har qanday chinakam badiiy asar ijodkorning o‘z davri, o‘zi yashayotgan ijtimoiy muhitga munosabati, u xususidagi o‘y-kechinmalari, tashvishi, iztirobi mahsuli sifatida paydo bo‘ladi. Ijodkor shaxsi boshqalardan ko‘ra mavjud hayot tartiblari, undagi ijobiy va salbiy jihatlar haqida ko‘proq o‘ylaydi, tashvish chekadi. Tabiatidagi ana shunday xususiyatlar, fazilat uni asar bitishga undaydi”[3.44]. Ilohiy syujetlar “Tarixi anbiyo va hukamo”da ixcham va qisqa shaklda bayon etiladi. Bu Qur‘ondagi qissalarni yodga soladi, (Sharq musulmon agiografiyasining birinchi galdagi oziqlanadigan manbasi ham Qur‘oni Karim hisoblanadi) ya‘ni Qur‘ondagi voqealar ixcham, sodda, tushunarli va qisqa holda keltirilgan. Bundan tashqari, mazkur voqea-hodisalarning ijodkor yashagan davrdagi ijtimoiy-maishiy muammolar bilan bog‘liq holda tasvirlanishi mualliflarning ijodiy yondashuvida namoyon bo‘ladi. “Biz agar Alisher Navoiy qalamiga mansub har bir asarni, u xoh lirik yoki epik asar bo‘lsin, xoh tarixiy mazmunda bo‘lsin, uni istisno tariqasida badiiy ijod namunasi deb qarasak, xato qilmagan bo‘lamiz. Hatto “Zubdat-ut tavorix”...ga o‘xshash asarlarni ham badiiy adabiyotga aloqasi bor, deb baralla aytsa bo‘ladi”[4.5]. Ijodkor yashagan davrdagi ijtimoiy-maishiy hayotda mamlakat to‘liq islomiylashgan, hukmdordan tortib, oddiy fuqarogacha ahli islom edi. Alisher Navoiy zamonida mamlakatni boshqarish, jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi munosabat, maishiy turmush ham islomiy qadriyatlarga asoslangan edi. Mana shunday sharoitda ommaga mazmun-mohiyatni tushuntirishdan ko‘ra, voqea-hodisalardan xulosa chiqarishga undash samaraliroq bo‘lgan. Shu sababdan ham muallif o‘zigacha bo‘lgan davrda yaratilgan mazkur turdagi asarlardan farqli ravishda sharh, izoh bermaydi, hatto voqealarga ham munosabat bildirmaydi. Aksincha, qissani yakunlagandan so‘ng ruboiy, qit‘a kabi kichik lirik janrlardan foydalangan holda voqealarga munosabat bildiradi. Payg‘ambarlar va hakimlar hayoti bilan bog‘liq ixcham holda keltirilgan voqealarda asosiy e‘tiborni mazkur hodisalarning mohiyatini kitobxonga yetkazishga qaratadi. “Navoiy nabiyalar tarixidagi asosiy, bosh yo‘nalish Alloh jamoliga musharraflilik ekanini bosqichma-bosqich yoritib boradi. Bunda zamon-u makonlar o‘zgarishi, inson haq-u botil, itoat aro darbadar kezishi, yaralish sababini anglash darajasi belgilab boriladi. Foni dunyo havasidan ozod shaxs Yaratganning marhamatiga erishib, haq yo‘lda sobit harakatlanadi” [5.14]. Bu jihatdan muallif nabiyarga buyurilgan vazifa

singari asarga yondashadi, ya'ni nabiyilar o'z qavmini ogoh etish, oldingilarning qilmishlaridan ibrat olish va to'g'ri yo'ldan ozmaslikka da'vat etganlari kabi. Alisher Navoiy ham "Tarixi anbiyo va hukamo" asari orqali ma'lum ma'noda o'zi yashayotgan jamiyatni ogoh bo'lishga va xulosa chiqarishga undaydi. Bu Qur'oni Karimdagi quyidagi oyatni esga soladi "Siz faqat ogohlantiruvchidirsiz"[6.437]. Shuning uchun ham Alisher Navoiy o'z davrining ma'rifatparvar ijodkori sifatida xalqni jipslikka chorlaydi. "Badiiy asar ijodkorning borliq bilan munosabati mahsuli o'laroq dunyoga keladi. Ya'ni borliqda yashayotgan individ sifatida ijodkorni muayyan muammolar o'ylantiradi, tashvishga soladi. Ijodkor o'sha muammoni idrok etishga intilishi ichki ehtiyojga aylangani uchun ham asarga qo'l uradi"[7.94]. Aksariyat kishilar mohiyatni anglasalar-da, tegishli xulosalar chiqarmasliklari sababidan jamiyat tanazzul sari bormoqda edi. Alisher Navoiy buni yaxshi anglagan holda, o'z asarida jamiyat (muslimlar)ning nima uchun halokatga yuz tutayotgani haqida har bir qissada urg'u beradi.

Tadqiqot natijalari: Alisher Navoiy o'zigacha yaratilgan manbalarni qunt bilan o'rgangan holda "Muntaxab ut tavorix" turkumidagi asarlariga yangicha usulda yondashgan. Misol tariqasida, "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida "Qobil va Hobil" bilan bog'liq voqeani muallif quyidagicha bayon etadi: "Qobil bila tuqg'on qiznikim oti Iqlimo debdurlar. Tiladikim [ya'ni Odam alayhissalomning buyrug'i nazarda tutilmoqda], Hobilg'a berg'ay. Qobil o'z singlining husni jihatidan anga moyil erdi, unomadikim Hobilg'a bergaylar. Odam (a.s) ikisiga qurbon buyurdikim, har qaysining qurboni qabul tushsa, anga bergay. Hobilni qurboni qabul tushub, Odam (a.s) Iqlimoni anga berdi. Qobil xusumat jihatidin Hobildek qarindoshinikim, suvari jamol va ma'naviy kamol bila orasta erdi va Odam (a.s) ani bag'oyat sevar erdi, halok qildi"[8.540]. Alisher Navoiy boshqa ijodkorlar singari voqealarni batafsil yoritib bermaydi, aksincha, ixcham va qisqa holda bayon etadi. Insonlarning ko'p hollarda o'zlari o'rgangan va bilgan narsalarga amal qilmasliklari va o'zlari uchun xulosa chiqarmasliklari uni tashvishga solar edi. "Tarixi muluki Ajam" asarida ham bunga katta e'tibor beriladi. Alisher Navoiy "Siroj ul-muslimin" asarida buni quyidagicha bayon etadi:

Eshittim bazmning bir nuqtadoni,
Shohi sohibqiron jon darmiyoni.
Demish: ne sud gar bir uyni tuzmish
Ki, nazmi shaynidin ko'p uyni buzmish.
O'qug'on el aning she'rini payvast,
Tilar bo'lg'ay hamisha oshiq-u mast.
Solib islom-u din uyiga oshub,
Binoyi xayr butkarmak ne mahsub.
Tushub bu nuqtadin jismim aro pech,
Chu bildim, chin emish dam urmadim hech [9.276].

Shu sababli ham Navoiy barcha voqea-hodisalardan xulosa chiqarishga undaydi. "Qobil va Hobil" qissasida asosiy e'tiborni Hobil o'ldirilgandan so'ng Qobilning ma'naviy jihatdan tanazzulga yuz tutishi va buning natijasida undan keyingi qavmlarning halokatiga sabab bo'lgan

voqealarga urg‘u beradi. Ayni damda Alisher Navoiy boshqa ijodkorlarda kuzatilmagan jihatga e‘tibor qaratadi, ya‘ni Hobilning jasadini nima qilishni bilmagan akaning holatini tasvirlar ekan, Qur‘oni Karimning “Moida” surasidan kichik bir oyatni keltiradiki, bu o‘z zamoni uchun ham muhim edi: “Mana shu qarg‘achalik bo‘la olmadimmi?”[8.540]. “Tarixi anbiyo va hukamo” asari yaratilishidan oldin Navoiy “Xamsa” asarida hokimiyat uchun ota farzandni, farzand esa otani o‘ldirishi kabi voqealarni bayon etgan edi. Bu esa Mo‘min Mirzo o‘ldirilishidan ancha oldin aytib o‘tilgan. Navoiy bu masalalarning yechimi sifatida payg‘ambarlar qissasidagi voqea-hodisalarga murojaat qiladi. “Islom-nubuvvat ta‘limoti badiiy tuyg‘ularni yangilaydi. Badiiy so‘z uchun ilohiyot ilhom manbaiga aylanadi. Bu esa badiiy so‘z va ifoda qudratini nihoyat yuqori maqomlarga ko‘taradi”[10.41]. Nubuvvat orqali yuzaga kelgan muammolar yechimining berilishi badiiy adabiyotning ta‘sir kuchini ham namoyon etadi. Asarning ma‘lum o‘rinlarida hukmdorlarni adolatli bo‘lishga undasa, ayrim o‘rinlarda fuqaroning ham insofli, diyonatli bo‘lishi lozimligiga urg‘u beradi. Buning sababi, avvalgi boblarda aytib o‘tilganiday, agiografik asarlar jamiyat ma‘naviy tanazzulga yuz tutganda yorug‘lik sari olib chiqadigan tayanch vazifasini bajargan. Xalqni zulm bilan boshqarganlar fuqarodan yaxshilik kutmasligini, ommaga qilgan munosabati hukmdorga bo‘lgan ishonchni ham belgilab berishini badiiy jihatdan mahorat bilan tasvirlaydi: “Xoja anga buyurdikim kunjud ek! Ul arpa ekdi. Xoja so‘rdikim, arpa ekib, kunjud nechuk toparsen? Dedikim, chun sen noshoyist ish qilib, nechuk Tangri taolodin rahmat va jannat ta‘ma qilursen, men ham dedim: arpa eksam, kunjud shoyad bar topqaymen”[8.582]. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarini tadqiq etish jarayonida, eng avvalo, asarning badiiyati, g‘oyaviy-falsafiy xususiyatlarini to‘g‘ri baholay olish lozim. “Alisher Navoiy nuqtai nazari, qolaversa, o‘sha davr g‘oyaviy-estetik tushunchalariga ko‘ra ham zolim va beshafqat kimsalar jazosini olmoqlari kerak”[11.11].

Alisher Navoiy Qur‘oniy qissalarni sarlavhaning o‘zida saqlashga harakat qilgan. Har bir payg‘ambar qissasining so‘nggida shu payg‘ambar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan to‘rtlik berilgan holda voqea-hodisalar navbatdagi payg‘ambar zikri bilan davom ettiriladi. “Bu kichik she‘rlar va nazmiy parchalardan maqsad shuki, shoir o‘quvchi diqqatini bir nuqtaga qaratadi. Inson kim bo‘lishidan qat‘iy nazar, u Nuh singari uch ming yil yashasa ham, Sulaymon kabi butun olamni o‘ziga bo‘ysundirsa ham, uni muqarrar ajal kutadi. Bir qarashda, nomi tilga olingan asarning g‘oyaviy pafosini ana shu masala tutib turgandek tuyuladi”[12.49]. Keltirilgan bu fikrlarga e‘tibor qaratsak, Alisher Navoiyning ijodiy maqsadi yanada oydinlashadi.

Agiografik asarning asl mohiyati payg‘ambarlar, aziz-avliyolar hayoti va faoliyatini yoritib berganligi uchun ijodkor aniq faktlarga murojaat qilib, ularni kitobxonga badiiy yo‘sinda yetkazib berishga harakat qiladi. Adabiyotshunos olim Yo‘ldosh Solijonov ta‘kidlagandek, “Faqat tarixiy yoki hujjatli asarlardagina emas, balki yozuvchining ijodiy fantaziyasi asosida yaratilgan badiiy asarlarda ham fakt va raqamlar, personajlar qiyofasi, yoshi, zamon va makon aniq bo‘lgani ma‘qul”[8.582]. Shu sababli muallif har bir payg‘ambar qissasi yakunlanar ekan, ularning yoshini ham keltirib o‘tadi. Ayrim o‘rinlarda esa boshqa ijodkorlarning bu boradagi qarashlarini ham bayon etadi. “Jafariyda uch yuz yil debdurlar, ammo o‘zga tavorixda to‘quz

yuz oltmish besh yil debdurlar” [8.582]. Alisher Navoiyning bunday qarashlarini boshqa asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Misol uchun “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar yoshi bilan bog‘liq masalaning yoritilishi va voqelikdan kelib chiqib munosabat bildirilishi asarning badiiyatini yanada oshirgan. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida bu kabi holatlatga alohida e‘tibor qaratilgan. Bunday aniqlikka intilish o‘z navbatida asarning ta’siri kuchini yanada oshirgan. Ya’ni dunyoning hech kimga vafo qilmasligi, barcha foniy olamda mehmon ekani haqida ibratli hikoyatlar va she’rlar keltiriladi. “Qissalar tarkibida she’riy parchalarning keltirilishi muallif badiiy niyatini teranlashtirish, obraz mantig‘ini asoslash, voqelikni falsafiy, estetik jihatdan to‘yintirishga imkon beradi”[5.18]. Asarda quyidagi she’riy misollarda ham buni ko‘rishimiz mumkin:

Gar Shis va gar Qobil erur, gar Hobil,
Yoshlari agar yuz yil erur, gar ming yil,
Bir necha kun etsalar jahonda ta’til,
Oxir borig‘a ajal buyurur ta’jil [8.541].

Payg‘ambarlar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq bunday chiroyli xulosalash va ibrat olish lavhalari Alisher Navoiy o‘zi uchun pir deb bilgan Xoja Ahror Valiyning qalamiga mansub to‘rtliklarda ham kuzatiladi:

Nuhning o‘g‘li yomonlar bilan bo‘ldi,
Natijada payg‘ambarlik xonadonini yo‘qotdi.
Kahf ashobi iti necha muddat,
Yaxshilar bilan bo‘lib, jannatini bo‘ldi [13.22].

Shu bilan bir qatorda Alisher Navoiy ayrim o‘rinlarida o‘ziga ham bu narsani esdan chiqarmaslikni ta’kidlaydi:

Nuh umri-yu Sulaymon mulkiga yo‘qtur baqo,
Ich, Navoiy, bodakim, olam g‘ami behudadur [14. 431].

Bunday misralarda Muhammad alayhissalom tomonidan aytilgan “Men ham siz kabi basharman” jumllarini muallif o‘zi uchun ham dastur deb bilganligini anglab olishimiz mumkin. Shu sababli Qur’oniy oyatlar va hadislar Alisher Navoiy ijodining salmoqli qismini tashkil etgan lirikaning ham ta’sir kuchini oshirishga xizmat qilgan:

Ko‘rki, ne bir lahzada bo‘ldi qatil
Tayri abobil ila as’hobi fil.
Qildi adam manzili koshonasi
Har birisin birgina qush donasi [15.282].

Asar yaratilgungacha bo‘lgan davrda Alisher Navoiy bu boradagi ko‘plab ma’lumotlarni sinchiklab o‘rganganligiga guvoh bo‘lamiz. Shu sababli ham muallif asarda bayon etilayotgan barcha voqea-hodisalarni nasr va nazmda o‘ziga xos uyg‘unlikda tasvirlaydi. “Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Tarixi muluki ajam”dagi she’riy matnlarning mavzu doirasi nihoyatda keng va ko‘p qirralidir. Ularda ilgari surilgan falsafiy-axloqiy g‘oyalar Navoiy ruhiyati va idealining badiiy inikosidir. Ularni o‘rganmoq Navoiy falsafasini to‘g‘ri tushunishda muhim ahamiyat

kasb etadi”[2.37]. Ijodkorning asar badiiyatini oshirishdagi mahoratini Ibrohim Haqqul quyidagicha izohlaydi: “G‘arb tarixchilaridan biri, tarix – bu san‘at, deydi va muarrixning vazifasi adabiyotchiniki bilan uyg‘un kelishi, mana shuning uchun ham qadimgi yunonlar haqli ravishda tarixni she‘riyat va muzika bilan bir qatorda kuylaganliklarini e‘tirof qiladi. Navoiyda ham tarix she‘riyatdan, she‘riyat esa tarixdan ajralmagan edi” [16.33].

“Tarixi anbiyo va hukamo” asarida hidoyatga chorlayotgan har bir payg‘ambar o‘z davri uchun ulug‘ bunyodkorlik ishlarini ham bajarganini alohida ta‘kidlaydi. Shis alayhissalomdan boshlab bayon etilgan bunday bunyodkorlik (Shis birinchi bo‘lib Ka‘bani tosh va ganch (bo‘r) bilan qurgani, keyinchalik Sus shahrini bunyod etgan) keyingi payg‘ambarlar va ularning vorislari davrida ham davom etadi: “... xalqdan yuzar-yuzar kishi ayirib buyurdikim, kentlar, hisorlar yasadilar (Qinon ibn Anush)”. Temuriy shahzodalar esa kurashlar davomida obod shaharlarni vayron etganliklari ko‘plab imoratlarning bunyodkori bo‘lgan Navoiyni qattiq ranjitgan edi. “Odam (a.s) Makkaga kelib, Arofot yonida Havog‘a uchradi. Andin “Arofot” ul erga laqab bo‘ldi”[17.540]. Navoiy bu voqea orqali “Arafa” (bilmoq, tanimoq) so‘ziga e‘tibor qaratadi va xalqni ma‘rifat tomon boshlaydi. Agar bunday urushlar to‘xtamasa, shaharlardan va hatto mamlakatdan ilm-ma‘rifatli insonlarning ketib qolishi, buning natijasida Nuh va Lut alayhissalom qissalarida bayon etilganiday, shaharlar vayron bo‘lishi, suv ostida qolib ketishi yo butunlay nom-nishonsiz yo‘q bo‘lishiga ham ishora qilinadi. Navoiydan keyingi davrda xuddi shu holni, ya‘ni shaharlar vayron bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. “Jabroil alayhissalom ul shaharlarni yerdin qo‘ng‘orib, osmong‘a elitib, sarnigun yerga urdi va ul eldin har kishikim, har qayda bor erdi sijjil toshi yog‘ib, borisin halok qildi” (Lut alayhissalom qavmining taqdiri bayon etilmoqda) “Malakut olamidin bir mahobatliq un keldikim, borchalari halok bo‘ldilar (Solih a.s. qavmi – Samud) [8. 543, 546]. Ijodkor fikrlarini aynan agiografik mazmunda berishidan maqsad, odamlarning e‘tiqodiga ta‘sir ko‘rsatishga va bu orqali jamiyatni isloh qilishga intilgan. “Payg‘ambarlar qissasining uzluksiz davomi, keyingi payg‘ambarlar da‘vati va ularga iymon keltirmagan xalqlar qismati haqida eslatishlari bilan ibratlidir”[18.13].

Ijodkor har bir voris o‘z qavmiga manfaatli bo‘lgan qandaydir ishni qilganiga ham alohida e‘tibor qaratadi. “...va avval kishikim, xurmo yig‘ochi ekdi, ul erdi. Va avval kishikim, sadaqa rasmi paydo qildi (Shis alayhissalomning o‘g‘li Anush)”, “Va arig‘lar qozib, suv chiqordi (Yazid ibn Mahloyil)”, “Xat va nujum ilmini ul paydo qildi va kiymak va yemak andin qoldi (Idris alayhissalom)” bu asarning so‘nggigacha davom etadi, bu hol hukamolar qismida ham ko‘zga tashlanadi. Muallif yashagan davrda esa buning aksi ko‘rinadi.

Ibrohim alayhissalom o‘g‘li Ismoil bilan Ka‘bani qurib bo‘lganlaridan keyingi vaziyatni muallif shunday tasvirlaydiki, bu orqali voqealarning tarbiyaviy jihatlariga urg‘u beradi: “Va ul uy tamomg‘a yetkondin so‘ngra manquldurkim, [hikoya qilingan] shukr qilib, uchasin Ka‘ba devorig‘a qo‘yub, tavoxur qildikim, bu uyin tugotdim deb. Xitob keldikim, bir ochnimu to‘yg‘oribsen yo bir yalong‘ochni butkoribsen, mubohat qiladursen” [8.551]. Mana shu kabi voqealarning bayon etilishi agiografik adabiyotning mohiyatini ochib beradi. Alisher Navoiy bunday holatni nazmda quyidagicha ta‘kidlagan edi:

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.

Muallif insonni insoniylikdan yiroqlashtiradigan narsa kibr ekanini ta‘kidlagan. Mana shu jihatdan ham Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari boshqa ijodkorlarning mazkur turdagi asarlaridan birmuncha farqlanadi. Inson ruhiy iztirob iskanjasida dunyo ko‘ziga qorong‘u tuyulgan vaqtlarda bunday bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida e‘tiqodiy qarashlarga tayanadi. Boshqa mualliflar payg‘ambarlarni ta‘riflar ekan, bu jihatlarga batafsil to‘xtalib o‘tmaydilar. Chunki Alisher Navoiy davlat arbobi va diniy rahnamo bo‘lishiga qaramay, birinchi navbatda, so‘z san‘atkorlari sifatida e‘tirof etiladi, Alisher Navoiy esa bunday voqea-hodisalarni bayon etar ekan, payg‘ambarlar o‘z xatosini anglab, Yaratgandan gunohlarini kechirishini so‘rab munajot etadilar. Muallif payg‘ambarlar ham “bashar” ekanligini, lekin o‘z vaqtida tegishli xulosa chiqara olganliklariga urg‘u beradi. “Payg‘ambarlar yolg‘onga o‘rin bermasligi, kufrga yo‘l qo‘ymasligi, gunoh yo‘l tutmasligi qat’iy talabdir. Shu tariqa payg‘ambar siymolarga xos bashariy-ilohiy xislatlar muqaddas kitoblar, xususan, Qur‘oni Karimda batafsil qayd etiladi. Bular Sharq, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida, g‘oyaviy-badiiy olamda ilohiy aqida sifatida chuqur samimiyat, imon bilan qabul qilinadi va komil insoni sifatida tavsiya etiladi” [19.42]. Bu voqea Ibrohim alayhissalom bilan bog‘liq holda berilsa-da, aslida barcha uchun ibrat sifatida keltirilgan. Alisher Navoiy mazkur voqeani nasr va nazmda o‘ziga xos uslubda tasvirlaydi. Demak, komillik sari intilayotgan inson yoki jamiyat shunday agiografik asarlardan xulosa chiqarmog‘i lozimdir. Bu yo‘lda payg‘ambarlarning hayot yo‘li ibrat va namuna vazifasini bajaradi.

Insoniylikning mazmun-mohiyatini anglab yetganlarga o‘zlarini taniydilar, o‘zini tanigan inson Yaratganni taniydi, Yaratganni taniganning e‘tiqodi mustahkam bo‘ladi. Muallif bu kabi masalalarni badiiy yo‘sinda shunday tasvirlaydiki kitobxon asar mutolaasi jarayonida iymonning mohiyatini anglab boradi. “...maning parvardigorim kimdur? Onasi dedikim: – Men. Dedikim: – Saning parvardigoring kimdur? Dedikim: – Otang. Ayt tikim: aning parvardigori kimdur? Dedikim: Namrud. Dedi: Namrudning parvardigori kimdur? Ayt tikim: otamning parvardigori. Ayt tikim: Namrudning shakli yaxshiroqdur yo otamning, Dedi – Otangning. Dedi – Otamning husni ko‘prakdur yo saning? Dedi: Maning. Dedikim: – Saning chiroying yaxshiroqdur yo maning? Dedikim: – Saning. Ibrohim alayhissalom ayt tikim, parvardigor o‘zidin yaxshiroq yaratqon bo‘lmas”. Alisher Navoiy mazkur voqeani xalqqa yaqinlashtirish maqsadida hikoyalardan emas, dialoglardan foydalangan. Yuqoridagi dialogdan ma‘lum bo‘ladiki, diniy-ilohiy g‘oyalarning ma‘naviy hayotga ta‘sir o‘tkazishi oiladagi muhitdan boshlanadi. O‘z navbatida, oila jamiyatning kichik bo‘lagi. Agiografik asarlarning bosh maqsadi ham jamiyatni mustahkamlash, sog‘lom qarashlarga ega bo‘lgan insonlarni shakllantirish. Oilada, eng avvalo, otaning mavqeyi baland bo‘lsa, oila tinch bo‘ladi. Yuqoridagi suhbatda ham buning guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Boshqa ijodkorlar o‘z asarlarida Yusuf alayhissalom qissasiga katta e‘tibor qaratgan bo‘lsalar, Alisher Navoiy Ibrohim alayhissalom voqeariga urg‘u beradi. Ijodkor bu qissani

bayon etish mobaynida o‘zlikni anglashga alohida e‘tibor bilan qaraydi. “Ul aytti: Ulug‘ butkim boltu aning bo‘ynidadur, ul qildi. Dedilarkim, aning joni va harakati yo‘qtur, bu ishni qilg‘oli nechuk bo‘lg‘ay. Ibrohim alayhissalom ayttikim, bir nimakim aning muncha qudrati bo‘lmag‘ay nechuk Tengrilikka shoyista bo‘lg‘ay”. Muallifning keltirgan jumalari hozirgi kun uchun ham muhim hisoblanadi. Ma‘naviyatida bo‘shlig‘i bor insonning e‘tiqodi ham mustahkam bo‘lmaydi. Bunday insonlarning qalbini zabt etish esa oson. Natijada, jamiyatimizda turli xil yot g‘oyalar ta‘siriga tushib qolayotganlar ko‘payib bormoqda, afsuski, diniy e‘tiqod ba‘zan ana shunday kuchlar qo‘lida niqob vazifasini bajarayotgani g‘oyatda achinarli holdir. “Hayrat ul-abror”ning muqaddimasida keltirilgan fikrlar ham buning isbotidir:

Nafsg‘a chun orif o‘lub mo‘-bamo‘

Foyiz o‘lub “qad arafa rabbahu”

ya‘ni o‘zligini bilgan Xudoni ham biladi.

Yusuf qissasi haqida so‘z boshlagan chog‘da muallif bu qissaning Qur‘on qissalari ichida ajralib turishi hamda mazkur qissa asosida ko‘plab ijodkorlar tomonidan asarlar yaratilganligini ta‘kidlaydi. Firdavsiy, Jomiy, Ma‘sud Iroqiy kabi ijodkorlar Yusuf qissasini qayta ishlagan holda asarlar yaratganliklari va o‘zi ham Yusufga bag‘ishlab maxsus doston yaratish niyatida ekanini aytib o‘tadi. “Komi xotirg‘a bu orzuni kechururkim, inshaalloh umr omon bersa, turk tili bila o‘q kofurgun (xo‘shbo‘y, bezamoq) varaq uzra xomayi mushkin shamomani surgay. Va bu qissa ibtido qilib, intihosig‘a yetkurgay.

Haq bu tavfiqni nasib etgay,

Yo nasib ulcha Tangridin etgay”[8.553].

Yuqoridagi misralardan ham ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy diniy mazmundagi syujet bilan qanoatlanmasdan, xuddi shu syujetni sof badiiy asarga aylantirishni ham niyat qilgan edi. Unutmaslik kerakki, Navoiygacha bo‘lgan davrda turkiy tilda Qul Ali va Durbeklar ham Yusuf qissasi asosida doston yaratganlar. Alisher Navoiy Yusuf haqida alohida asar yaratishni ta‘kidlab, imkon qadar qisqa berishga harakat qilsa-da, voqealar bayonidan o‘zini to‘xtatib qololmaydi. Shu sababli asosiy e‘tiborni o‘z davridagi ijtimoiy-siyosiy muammolarga qaratadi hamda mazkur qissa orqali ularga yechim izlaydi. Sharq adabiyotida “Qisas ul-ahsan” (eng go‘zal qissa) deb nomlanuvchi bu qissa shu darajada keng tarqaldiki, hatto voqealar va syujet liniyasi Qur‘onda kelgan voqeadan uzoqlashib ketdi. Bir qator “Yusufnoma” kabi asarlarning yaratilgani va hozirgi kunda ham yozilayotgani bunga misol bo‘la oladi. Buni xalq og‘zaki ijodida ham ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli ham boshqa ijodkorlar singari asosiy voqealar Yusuf va Zulayho muhabbati bayoniga bag‘ishlanmaydi. Alisher Navoiy bunda asosiy e‘tiborni aka-uka hamda ota va o‘g‘il munosabatlariga, bundan tashqari, davlat boshqaruvi masalalariga ham qaratadi. Yusuf xalqni ochlikdan xalos etgan holda, o‘z tasarrufiga berilgan joyda adolatli siyosat yurgizadi. Bir vaqtlar unga zulm etgan akalariga nisbatan shafqatli bo‘ladi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, har bir asar o‘z davrining mahsuli sifatida yaratiladi. Alisher Navoiyning asarida ham muallif yashagan davrdagi ijtimoiy muammolar “Tarix anbiyo va hukamo”dagi voqea-hodislar bayoniga ta‘sir ko‘rsatganligi asar mutolaasi davomida ko‘zga tashlanadi.

Davlatni adolat bilan boshqarish, ota va o‘g‘il munosabatlarining qanday bo‘lishini muallif alohida ta’kidlab o‘tadi. Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asaridan tashqari boshqa asarlarida ham ota va farzand munosabatiga e’tibor qaratgan. Misr qaysari Rayon vafot etganidan so‘ng Yusuf taxtga chiqqan Qobusni haq yo‘lga da’vat etadi. Mana shu joyda unutmasligimiz kerakki, xalqni qahatchilikdan olib chiqqan va xalq uni qo‘llab turgan bir paytda Yusuf kuch bilan emas, yaxshi so‘z bilan Qobusni adolatli bo‘lishga va yaratganga imyon keltirishga chorlaydi. Qobus ham o‘z navbatida Yusufni hurmat qilgan holda da’vatiga bo‘ysunmasa-da, nizolashmas ham edi. Muallif yashagan davrda esa buning aksini ko‘ramiz, demak, ijodkor bu qissalarni keltirish orqali ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarni diniy-ilohiy voqealar asosida targ‘ib qilganligini anglaymiz. Chunki har qanday asar o‘z davrining mahsuli sifatida yaratiladi. Ijodkor asari orqali davr muammolariga yechim izlaydi. Shuning uchun Alisher Navoiy yuqori tabaqa vakillarini va o‘z navbatida butun xalqni bu qissalardan xulosalar chiqarishga undaydi. “Tarixi anbiyo va hukamo”da, ko‘pincha, qavmlarning halokatiga kuchli urg‘u beriladi. Muallif bu jihatdan Qur’on syujetini o‘z asarida qo‘llaydi, ya’ni Muhammad alayhissalomga Qur’onda o‘zidan oldingi payg‘ambarlar qissasi batafsil va takror bayon etilishidan maqsad halokatdan ogoh etish edi, Navoiy ham shu yo‘lni tanlaydi va har bir payg‘ambar qissasida o‘sha qavmning halokatini kengroq berishga harakat qiladi.

Alisher Navoiygacha bo‘lgan “Qisas ul-anbiyo”larda hajm jihatdan Yusuf alayhissalomga bag‘ishlangan qissa katta bo‘lsa, Navoiy asarida Muso alayhissalom haqidagi qissa hajman katta hisoblanadi. Tug‘ilishidan to vafotiga qadar bo‘lgan davrdagi voqealar rivojida Muso alayhissalomning jamiyatni isloh qilishi va xalqni ma’rifat sari yetaklashga qaratilgan harakatlari namoyon bo‘ladi. O‘z xalqini bosqinchilardan, ya’ni Firavndan himoya qilish yo‘lida ko‘plab mashaqqatlarga uchraydi, ayrim vaqtlarda esa o‘z qavmi uni tushunmaydi. Navoiy ham millat ravnaqi uchun ko‘p zahmatlar tortganligi, bu yo‘lda umrini, molini, ijodiy salohiyatini xalq uchun sarflagan, lekin ba’zi vaqtlarda aksariyat zamondoshlari uni tushunmaganligini ijodkorning o‘zi ko‘p ta’kidlab o‘tgan.

Shu o‘rinda muallifning ijodiy yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Muallif bir davrda yashagan Muso va Horun alayhissalomlar haqida so‘z yuritarkan, Muso alayhissalom qayergadir safar qilmoqchi bo‘lsa, o‘rniga Horun alayhissalomni xalqqa rahbar sifatida qoldiradi. Bu orqali ijodkor rahbar insonning munosib bir suyanchig‘i bo‘lishi lozimligiga ham e’tibor qaratadi.

Bu jihatdan Alisher Navoiy Husayn Boyqaroga munosib suyanchiq bo‘lganini ham unutmasligimiz kerak. “Bunday shohga bek bo‘lish, xuddi Nabiyy (s.a.v.) xizmatidagi chahoriyorlardan biri kabidir” [20.16], deya o‘zining Shoh G‘oziyga bo‘lgan sadoqatini namoyon etgan edi. Muso alayhissalom qissasining katta bo‘lishining eng birinchi sababi, bu qissa tarkibida Muso alayhissalomdan tashqari yana to‘rtta payg‘ambarning bir davrda yashaganligida edi. Muso, Shu’ayb, Horun, Xizr va Yuvsha alayhissalomlar bir davrda yashaydilar. Muso yetakchi obrazga olib chiqilgan holda qolgan payg‘ambarlar Muso obrazini to‘la yoritib berish uchun xizmat qiladi:

Horun – yaqin do‘st, suyanchiq;

Shu‘ayb – oila tayanchi, farzandlariga munosib tarbiyachi (Muso alayhissalomning qaynotasi);

Xizr – ustoz, ilm-ma‘rifat yo‘lboshlovchisi (mohiyatni anglatgan ustoz);

Yuvsha – yaxshi hamroh va munosib voris;

Muso – do‘st, shogird, rahbar.

Muso alayhissalom millati (qavmi) birligi va jipsligi uchun harakat qildi. Xalqini zulmdan saqlab qoldi va butunlay boshqa joyga borib, yangi tuzum, jamiyat barpo etdi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, nega Fir‘avn halok bo‘lgan bir davrda begona joyda yangi jamiyat barpo etildi. Fir‘avn vafot etgani bilan uning ta‘siri sezilib turganligi bois yosh avlodni bu ta‘sirdan saqlash kerak edi. Hukmdorlarning e‘tiborsiz bo‘lishi xalqning ahvolini og‘irlashtirgani tarixdan ayon. Lekin o‘z navbatida hukmdoriga bo‘ysunmagan qavmlarning ham adolatli hukmdorga muhtoj bo‘lganlari o‘ziga xos usulda bayon etilgan. “Zul-Kifl o‘tkandin so‘ngra, necha qarng‘acha bani Isroil orasida payg‘ambar mab‘us bo‘lmadi. Va O‘diy g‘olib bo‘lib, alarning ahvolig‘a ko‘p future yuzlandi va qatl, asir, toroj ko‘rdilar. Va dushmanlar Sakina tobutidin necha payg‘ambarzoda va malikzoda bila toroj va asir eltilar”. Shuning uchun ham agiografik asar yaratayotgan ijodkor betaraf bo‘lishi lozim. Muallif bu bilan jamiyatning ravnaqi, mamlakatning rivojlanishi uchun hukmdor va fuqaro birday ma‘sul ekanligiga e‘tibor qaratmoqda. Asarning boshidan so‘nggigacha Alisher Navoiy xalqni odillikka chorlaganlar malomat qilinishi va xalqni yolg‘on va‘dalar bilan aldab, ular ustidan adolatsiz hukm yuritganlarni omma qo‘llab-quvvatlaganligini alam bilan yozadi. Haqiqatni qo‘yib, yolg‘onlarga uchganlar esa har doim balolarga duch kelganlari voqealar rivojida ko‘rsatib beriladi.

Asarda har bir payg‘ambar ilm olishga intilgani va bu bilan xalq orasida obro‘ topgani hamda boshqalarga qaram bo‘lmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Agiografik asarlarda insonlarni ilm olib, oxirat tadorigini ko‘rish bilan bir qatorda, kasb-kamolot orqali dunyo mashaqqatlarini yengganlari hikoya qilinadi. Shuning uchun ham bunday asarlar kishilarga ma‘naviy jihatdan kuch-quvvat bag‘ishlab kelmoqda. Hukmdordan tortib, oddiy fuqarogacha ma‘lum kasb-korga ega bo‘lishi jamiyatning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Hattoki, agiografik asarlarning qahramonlari bo‘lgan payg‘ambarlar, avliyolar, tariqat peshvolari ham ma‘lum bir yumush bilan band bo‘lganlar. “Va aning ishi dehqonlik erdi (Alyasa)”, “Iysho ani shubonliqqa tayin qilib erdi”, “Tengri taollodan bir san‘at istido qildikim, vajhi maosh andin hosil qilg‘ay (Dovud)”. Xalq va mamlakat rahbari bo‘lgan inson har doim ilm ahli bilan ko‘p suhbatlashishi lozim ekanligiga ham e‘tibor qaratilgan. “Va ul avqotin to‘rt qism qilib erdi. Bir kun ulamo bila suhbat tutub dars va ta‘limg‘a mashg‘ul bo‘lur erdi”. Agiografik asarlar kishini ma‘naviy hamda ruhiy jihatdan sog‘lom bo‘lishida alohida ahamiyatga egadir. Shu sababli ham Sharq agiografiyasini tasavvufdan ayro holatda tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Alisher Navoiy asarida tarixiy faktlar va mashhur ulamolarning asarlariga tayangan holda, ko‘plab ma‘lumotlar, badiiylikdan uzoqlashmagan holda, bayon etiladi. “Sulaymon

alayhissalom dedikim, mandin azimush-sha’nroq maxluq bilurmisen? Dedikim, sendin azimush-sha’nroq mendurmen. Sening taxting bir jamoddur (jonsiz). Mening taxtim saning muborak ilikingdur”. Shu kabi voqea-hodisalarning bayon etilishi asarning badiiyatini oshirish barobarida sof agiografik asar ekanligidan ham dalolat beradi. Agiografik asarlar diniy-ilohiy g‘oyalarni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan jamiyat hayotiga tatbiq etgan holda, voqea-hodisalarning mazmunini badiiy adabiyot vositasida yoritib beradi. Misol uchun, xalq orasida keng tarqalgan “uyda surat saqlab bo‘lmaydi, inson rasmini chizib bo‘lmaydi” kabi tushunchalarning mohiyati quyidagicha izohlanadi: “Chun qiz butparast erdi, bu suratni parastish (sig‘inish) qila boshladi. Sulaymon alayhissalom g‘ofil va bu ish Osafga etti... Bu bo‘lg‘ay Sulaymon alayhissalom so‘rub bilgandin so‘ngra, ul butni ushotib o‘zi tazarrug‘a tushti”. Ko‘rinib turibdiki, yuqorida xalq orasida tarqalgan tushunchalar xato ekanligi, aslida surat saqlash, inson suratini chizish mumkin ekanligi bayon etilmoqda. Lekin bu suratga sig‘inish, undan najot va madad tilash xato ekani ko‘rsatib o‘tiladi. Alisher Navoiy o‘z davrida ko‘plab rassom va naqqoshlarga homiylik qilganligi hamda ular tomonidan ko‘plab estetik zavq bera oladigan asarlar yaratilganligining o‘ziyoq Navoiy diniy ilmlarning mazmun-mohiyatidan nechog‘lik xabardor ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Anbiyolar qissasini yakunlar ekan, muallif hakimlar zikriga o‘tishdan oldin beshta hikoya keltirib o‘tadi. Bularidan “As’hobi kahf” va “As’hobi Uxdux” qissalarini Qur’onga tayanib, Barsiso Obid, Shamsun Obid va Jarih Rohib qissalari Ibn Abbos raziyallohu anhudan keltirilgan hadislarga tayanib, bayon etiladi. Bu qissalar bayoni ham ma’lum darajada zamon bilan bog‘liq muammolarga bag‘ishlanadi. Misol tariqasida, hadislarga tayanib bayon etilgan qissalarda ayollarning makri sababli malomatga qolgan va dushman qo‘lida halok bo‘lgan Obidlarning qissalari hukmdorlarni xulosa chiqarishga undaydi. Temuriylar hukmronligi paytida siyosatga malikalarning aralashishlari natijasida turli fitnalar bo‘lganini tarixiy faktlar ham ko‘rsatadi. “Bir kecha obid uyg‘ondi, g‘addora aning ilik-ayog‘in berk tanob bila bog‘lab, Shamsun uyg‘ondi va zo‘r qildi va iplarni uzub, ul ishning qilg‘on sababin so‘rdi ersa, dedikim, saning zo‘rungni imtihon qildim. Ahli sharik muni bilgach, zanjir yubordilar. Bu qotla zanjir bila bog‘ladi. Obid yana uyg‘onib zo‘r qilib, zanjir dog‘i uzuldi. Oqibat makr va fusun bila obid sodadin iqrar tortti ham aning mahosini tukidin bosh barmog‘in bog‘lab, kufforga topshurdi”. Rabg‘uziy obidlar bilan bog‘liq voqealarni Yunus alayhissalom qissasi tarkibida kichik bir voqea sifatida bayon etadi. Rabg‘uziy va Navoiyning ijodiy yondashuvi ham shu joyda yana bir bor ko‘rinadi. Navoiy ijtimoiy hayot bilan bog‘lagan holda bayon etsa, Rabg‘uziy asar yaratish maqsadidan kelib chiqqan holda, payg‘ambarlarning hayoti va faoliyatini yoritishda obidlar bilan bog‘liq tafsilotlarni keltiradi: “Yunus alayhissalomga bu obidlarni ko‘rsatishdan murod Yunus alayhissalomdan ortiq ibodat qiluvchi qullari ko‘p ekanini bildirish edi” [21.196]. Bundan tashqari, Rabg‘uziy ma’lum bir qissa davomida yo so‘ngida savol-javobdan foydalangan holda kitobxonni hayajonga solgan bo‘lsa, Navoiy qissa ichida yoki yakunida mazkur voqea bilan bog‘liq she’riy parchalarni keltirish orqali o‘quvchini hayajonga soladi. Shu sababdan agiografik asarlar bir-biridan farqlanadi.

Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari “Qisas ul-anbiyo” tipidagi asarlarda farqli jihati “Hukamolar zikri” qismining o‘ziga xos usulda berilishida namoyon bo‘ladi. Navoiydan keyingi davrlarda yaratilgan asarlarda bunday qism uchramaydi. Ko‘pchilik bu qismning qo‘shilganligi maqsadga muvofiq emas deb hisoblaydi, ammo so‘z san’atkorining ijodiy yondashuviga e’tibor qaratsak, bunday fikrlar asossiz ekanligi ayon bo‘ladi. “Vaqfiya” asarida “Al ulamo-u varasatu al-anbiyo (Olimlar payg‘ambarlarning merosxo‘ridir)” oliy marotibi umidi birla mashaqqat tunlari aftoda tirsaklarin falokat buryosig‘a qo‘yub, sabr iliklarin shikastaliq engagiga stun etib” [22.632] deya hakimlar va olimlarga ta’rif beradi. Shu bilan bir qatorda, “Payg‘ambarimiz: “Olimlar yer yuzining mash’al – chiroqlari, payg‘ambarlarning yordamchilari, mening vorislarimdir... Ular bilan birga bo‘lish, ularning majlislarida qatnashish – ilm-u irfon, fayz-u barakaning ortishiga sabab bo‘ladi”, degan ekanlar” [24.67]. Bundan tashqari, olimlarning martabasi haqida Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan “Makorim ul-axloq” asarida quyidagi fikrlar bayon etiladi: “Salovatlarning mukammali va salomlarning afzali ul zotga bo‘lsin, shunday deganlar “qiyomat kuni uch toifa shafolat qiladilar: payg‘ambarlar, olimlar, shahidlar”. “Shuningdek, payg‘ambar alayhissalom yana bir joyda olimlar to‘g‘risida shunday deydi: “Kim olimning orqasida namoz o‘qisa, go‘yo payg‘ambarning orqasida namoz o‘qigandek bo‘ladi” [25.30-31].

“Tarixi anbiyo va hukamo” asarida keltirilgan 13 ta hukamo o‘zaro bog‘liqlikda asar kompozitsiyasiga mos tarzda beriladi. Birinchi hukamo sifatida Luqmoni hakim keltiriladi. “Luqmoni hakim nomi payg‘ambarlar qatorida ham, hukamolar zikrida ham (birinchi o‘rinda) keltiriladi. Luqmoni hakim nomi Qur‘oni karim, tazkira, manoqiblarda uchraydi” [26.206]. Hatto Luqmoni hakim nomi bilan bog‘liq voqealar xalq og‘zaki ijodida ham anchayin keng tarqalgan bo‘lib, ildizlari bevosita diniy manbalarga borib taqaladi [Bu haqida 1990-yil G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti tomonidan nashr etilgan “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” ko‘p tomli kitobining “Luqmoni Hakim: Ertakalar, naqlar, kulki-hikoyalar, latifalar” kitobida keltirilgan xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq hikoylarni keltirish mumkin]. “Chun Luqmonning hikmati va nubuvvati arosida ixtilofdur. Va aksar el ani nabiy debdurlar. Anbiyo zumrasida bitildi va hukamo arosida ham mazkur qilindi”[8.597] va keyingi nomi zikr etilgan hukamolar silsila jihatidan Luqmoni hakimning shogirdlari hisoblanadi. Quyidagi jadvalda buni ko‘rishimiz mumkin:

“Tarixi anbiyo va hukamo” asarida keltirilgan hukamolar silsilasi

Hukamo	Qaysi hukamoning shogirdi ekanligi
Luqmoni hakim	Payg‘ambar ekanligi xususida ixtiloflar bor
Fisog‘urs hakim	Luqmoni hakimning shogirdi
Jomosb hakim	Luqmoni hakimning shogirdi
Buqrot hakim	Fisog‘urs hakimning shogirdi

Buqrotis hakim	Buqrot hakimning shogirdi
Suqrot hakim	Buqrotis hakimning shogirdi
Aflotun hakim	Suqrot hakimning shogirdi
Aristolis hakim	Aflotun hakimning shogirdi
Balinos hakim	Aristolis hakimning shogirdi
Jolinus hakim	Balinos hakimning shogirdi
Batlimus hakim	Jolinus hakimning shogirdi
Sodiq	Nushiravoni odilning maslahatchisi
Buzurjmehr	Nushiravoni odilning vaziri

“Navoiy payg‘ambarlar haqida so‘z yuritar ekan, “Olimlar payg‘ambarlar merosining egalari”, “Ummatimning olimlari Bani Isroilning payg‘ambarlari kabi” hadislarni tez-tez tilga olib turadi va olimlikning sharafligi ekanligiga diqqatini qaratadi. Sharqda hakimlikning darajasi esa olimlikdan yuqori turgan va hakimlik donishmadlik timsoli bo‘lgan... Navoiyning Payg‘ambarlardan keyin hakimlarni zikr qilishi, asardagi mantiqiy davomiylikni ta’minlagan deyish mumkin” [27.253]. Asar so‘nggidagi ikki hukamo esa silsila jihatidan Luqmoni hakimga bog‘lanmaydi, aksincha, islom dini kirib kelishidan oldin hukmronlik qilib, adolatli shoh sifatida tarixda qolgan Nushiravoni odilning vazirlari hisoblanadi. Bu qismda nomlari keltirilgan hukamolarning barchasi Alisher Navoiyning boshqa asarlarida ham uchraydi va shohning yonida turib, odilona siyosat olib borishida unga maslahatlar beradilar. Navoiy Balinos hakimning quyidagi fikrlarini keltiradi: “...podshoh kerakkim, borchaga eldin nima olgay, ammo e’tidol bila, to mulk barqaror bo‘lg‘ay. Yo‘qki, borchaga nima berg‘ay bee’tidoliq bila, yo mulk buzilg‘ay” [8.599]. Shu sababdan ijodkorning bunday ijodiy yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Hukamolar davlat arbobi sifatida tilga olinadi, ammo shuni ham unutmaslik kerakki, ular payg‘ambar ta’limini olganliklari uchun davlat boshqaruvida hukmdorni o‘zidan oldingi qavmlar hamda hukmdorlar qismatidan xulosa chiqarishga undaydilar.

Alisher Navoiy payg‘ambarlar tarixi xususida (Navoiy Muhammad alayhissalom tarixiga bag‘ishlab alohida asar yaratishni niyat qilgan edi) hali ko‘plab asarlar yaratilishi va yaratiladigan asarlar bir-birini takrorlamasligini ta’kidlaydi. “Jamoati anbiyokim, g‘ayri mursal erdilar, alarning adadi muayyan ermas. Ba’zi yuz yigirma to‘rt ming va ba’zi sekiz ming debdurlar... muborak ismlarin g‘alat bitmak beadablig‘ va ahvollarin sharh qilmoq befoyda ko‘rungan uchun alar zikridin qalam jardai [qalam choptirmoq ma’nosida] xush xiromidin inon tortildi” [8.599]. Shu sababli ham ijodkor asarni xalq tushunishi uchun sodda til bilan yozganligini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Muhammad alayhissalom va chahoriyorlar bayonida so‘z yuritilmaydi. Buning o‘ziga xos sabablari mavjud. Ijodkor Yusuf alayhissalom haqida fikr bildirib, bu mavzuda alohida asar yaratishini ta’kidlab o‘tgan edi.

Muhammad alayhissalom va xalifai roshidinlar haqida ham nasib qilsa, alohida asar yaratish niyati borligini “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam”, “Lison ut-tayr”da va boshqa qator asarlarida ta’kidlab o’tadi. Buni mazkur asarlarda Muhammad alayhissalom va chahoriyorlar bilan bog‘liq lavhalarda ham ko‘rishimiz mumkin. “Shoir ijodida Muhammad (s.a.v) siymosi badiiy talqini asosiy o‘rin tutadi. Ayrimlar shoir Rasululloh haqida alohida asar yaratmaganligini qayd etadilar. Shuni aytish kerakki, Alisher Navoiy ijodining asosini Muhammad (s.a.v.) ma’rifati tashkil etadi. Ikkinchidan, Muhammad alayhissalom badiiy siymosi barcha ifodalari bilan shoirning butun ijodida to‘liq aks etadi” [19.28].

Bizning fikrimizcha, Hazrat Alisher Navoiyning haj safari haqidagi orzulari amalga oshganidan so‘ng bu asarlarni yaratishni niyat qilgan bo‘lishi mumkin. “Xondamir yana “Habib us-siyar” asarida bu haqida alohida to‘xtalib yozadi: “Sof fikrlik Amir Nizomiddin Alisher... ko‘pdan beri hamma narsadan kechib va borini murod sarmoyasi qilib, Hijoz taraflarga borish, musulmonlik hajini o‘tash hazrat rasulning muqaddas qabrini ziyorat qilish saodatiga yetishishni orzu qiladi” [28.103]. Tarixiy jarayonning bunga imkon bermaganligi esa barchamizga ayon. “Zubdat ut-tavorix” deb yuritiluvchi “Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Tarixi muluki Ajam” asarlari o‘sha Navoiy yozmoqchi bo‘lgan tarix kitobining boshlang‘ich bo‘laklaridir” [1.234]. Agar ijodkorning niyati amalga oshib, Yusuf alayhissalom hamda Muhammad alayhissalom haqidagi asarlar yaratilganida dunyo adabiyotidagi mukammal agiografik asarlar jamlanmasi bo‘lar edi.

Xulosa: “Tarixi anbiyo va hukamo” asari nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyoti tarixida yaratilgan agiografik asarlarning go‘zal namunasi hisoblanadi. Asarda ijodkorning diniy-e’tiqodiy qarashlari namoyon bo‘lishi barobarida, davr muammolarining o‘ziga xos yechimlari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Muallif asarda keltirgan barcha voqea-hodisalar ijtimoiy hayot bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli keng kitobxonlar tomonidan qabul qilindi. Asarning kompozitsion qurilishi va voqea-hodisalarning batafsil bayon etilmay, faqat xulosalarning berilishi kitobxonni o‘ylashga hamda mazmun-mohiyatni yaxshiroq tushunib olishga undaydi. Shu jihatdan ham Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari bu turdagi boshqa asarlardan farqlanadi.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. – Тошкент: Шарқ, 2014.
2. Пардаева И. Алишер Навоий тарихий асарлари бадияти. Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2018.
3. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
4. Қаюмов А. Алишер Навоий ижодининг жаҳоншумул аҳамияти. Шоир таваллудининг 570 йиллигига бағишланган халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

5. Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2020.
6. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом институти, 2004.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
8. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. To‘la asarlar to‘plami X jildlik. 8-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
9. Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. Тўла асарлар тўплами X жилдлик. 8-жилд. – Тошкент: Фан, 2000.
10. Қобилова У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлар талқини. Филол. фан. док... дисс. – Самарқанд,
11. Жўраев Ҳ., Саидакбарова М. Тарих ва бадиият. – Тошкент: 2018.
12. Жўраев Ҳ. Лирикада анъана ва ўзига хослик. – Тошкент: Фан, 2004.
13. Наврўзова Г., Рахматова Х. Нақшбандия тушунчалари генезиси. – Бухоро, 2010.
14. Alisher Navoiy. Badoe ul-vasat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
15. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami X jildlik. 6- jild: Hayrat ul-abror. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
16. Ҳаққулов И. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: Юлдузча, 1989.
17. Alisher Navoiy. Badoe ul-vasat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2012.
18. Кароматов. Х Хўрланган пайғамбарлар ғалабаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998.
19. Қобиров У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлар талқини. Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019.
20. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Sano-standart, 2018.
21. Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. – Тошкент: Ёшлар нашриёти, 2018.
22. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami X jildlik. 9-jild. Vaqfiya. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
23. Гиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. Нашрга тайёрловчи Комилжон Раҳимов. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2016.
24. Нодирхон Ҳасан. Туркияда яссавийшунослик. Қул Хожа Аҳмад Яссавийнинг ҳаёти, ижоди ва тариқати мавзусида турк яссавийшунослари билан ўтказилган суҳбатлар тўплами. Муҳаммад Асад Жўшжон – Хожа Аҳмад Яссавий ҳазратлари. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999.

25. Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. Нашрга тайёрловчи Комилжон Раҳимов. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2016.
26. Абдуллаева Д. Мумтоз адабий асарлар таркибидаги “масал”лар генезиси, типологияси, функционал таҳлили. – Тошкент: Muharrir, 2020.
27. Баҳодир Қобул. Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. – Тошкент: Адабиёт, 2023.
28. Турсунов Ю. Навоийнинг ҳаёт йўли: йиллар ва манзиллар. – Тошкент: Zabarjad Media, 2023.